UO‘K: 316.6:331.54(575.1)(04)

YANGI O‘ZBEKISTONDA INSON SALOHIYATI YUKSALISHINING IMKONIYATLARI VA UNDAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI

X.N. Xolmirzayev

Maqolada Yangi O‘zbekistonda inson salohiyatini yuksaltirishda innovatsion faoliyatning o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, modernizatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati haqida fikr yuritilgan. Modernizatsiya jarayonlarini falsafiy o‘rganish natijalari, inson salohiyatining namoyon bo‘lishida modernizatsiya jarayonlarining ahamiyati falsafiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Inson salohiyatini yuzaga chiqarish va rivojlantirishda mavjud salohiyatni to‘g‘ri realizatsiya qila olish masalalariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *modernizatsiya, innovatsiya, innovatsion faoliyat, salohiyat, inson salohiyati*.

В статье освещается роль и значение инновационной деятельности в развитии человеческого потенциала Нового Узбекистана. Также разъясняется понятие модернизации. С философской точки зрения анализируются результаты философского исследования модернизационных процессов, значение модернизационных процессов в проявлении человеческого потенциала. При этом были затронуты и вопросы умения правильно реализовать имеющийся потенциал в развитии и развитии человеческого потенциала.

Ключевые слова: *модернизация, инновации, инновационная деятельность, потенциал, человеческий потенциал.*

Kirish

Ma’lumki, hozirgi davrda mamlakatimizning barcha sohalarida modernizatsiya jarayonlari amalga oshirilmoqda. Islohotlar yetib bormagan sohani topish qiyin. Mazkur jarayonlar inson salohiyatiga tayanadi va ularning samaradorligi inson salohiyatiga bog‘liq. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar zamirida jamiyatda mavjud inson salohiyatini yuksaltirish va ishga tushirishga qaratilgan ulkan imkoniyatlar mavjud.

Inson salohiyati taraqqiyotining determinantlaridan biri modernizatsiya hisoblanadi. So‘nggi vaqtlarda falsafiy adabiyotlarda “modernizatsiya” tushunchasi keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston olimlari tomonidan modernizatsiya muammosini o‘rganish borasida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Modernizatsiyaning turli konsepsiyalari va ta’riflari ishlab chiqildi. Jamiyatni nazariy jihatdan tadqiq etishda, jamiyatning oddiydan murakkabga tomon bosqichma-bosqich takomillashib borishi jarayonini o‘rganishda “modernizatsiya” tushunchasidan foydalaniladi.

Jamiyat taraqqiyoti davomida uzluksiz ravishda modernizatsiya amalga oshib borgan. Modernizatsiya – jamiyat va inson hayotining doimiy va muntazam yangilanib borishini anglatadi. Uning maqsadi inson turmush tarzini yaxshilash, turmush darajasini va farovonligini oshirishdir. Modernizatsiya obyektiv jarayon bo‘lib, uning natijasida ijtimoiy hayotda yangilanish, transformatsiya amalga oshadi.

Modernizatsiya to‘g‘risida gapirilganda, asosan iqtisodiy sohaga tegishli yangilanish tushuniladi. Lekin modernizatsiya inson ijtimoiy-madaniy, intellektual hayoti, dunyoqarashi va umuman ongli hayotining barcha sohalariga qo‘llanilishi mumkin. Siyosat, fan, texnika, ta’lim sohalari ham bundan mustasno emas. Modernizatsiya (fransuzcha moderne – eng yangi, zamonaviy) – biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o‘zgartirish degan ma’noni anglatadi. Jamiyatni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish maqsadida xilma-xil o‘zgarishlarni amalga oshirishdan iborat ijtimoiy-tarixiy jarayonni ifodalovchi tushuncha [1. B. 82].

Dastlab modernizatsiya jarayonlari asosan iqtisodiy sohada amalga oshadi. Lekin jamiyatning har tomonlama taraqqiyoti uchun iqti-

sodiy modernizatsiyaning o‘zi kamlik qiladi. Unga mos holda qolgan sohalarning ham modernizatsiyasi talab etiladi. Bu jarayonda inson omili o‘ta muhimdir. “Fuqarolik jamiyati rivojida iqtisodiy omilning o‘zi kamlik qiladi, albatta. Bu sohadagi yana bir zarurat – inson omilidir. Oliy jamiyat qurish uchun inson, eng avvalo, ehtiyojlarini chuqur anglamog‘i va ularni jamiyatda erkin ro‘yobga chiqarish masalasini egallamog‘i lozim. Zero, bunday jamiyat inson ehtiyojining barcha davrlardagidan ortishi va ularni ro‘yobga chiqarishga “chanqoq”lik ham behad kuchayishiga asoslanadi. Albatta, bunda subyektiv omil bilan birga obyektiv omil, ya’ni inson ehtiyojlari qondirilishi uchun imkoniyat yaratish ham nihoyatda muhim” [2. B. 10].

O‘zbekiston olimlaridan modernizatsiyani falsafiy o‘rganish borasida tadqiqotlar olib borgan professor A.Qodirovning fikricha, “Jamiyatni modernizatsiyalash serqirra hodisadir, u inson va jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini – ma’naviy-madaniy, ma’rifiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, mintaqaviy va global munosabatlarni qamrab oladi” [3. B. 5]. Mazkur ta’rifda modernizatsiya keng qamrovli jarayon ekanligi, bu obyektiv jarayon jamiyat sohalarini qamrab olish bilan birga ma’naviy va global harakatga ega bo‘lgan global munosabatga ham aloqador ekanligi aytilgan.

F.Yuldasheva modernizatsiyani quyidagicha ta’riflaydi: “Modernizatsiya – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida subyektlar tomonidan amalga oshirilayotgan va boshqarilayotgan islohotlar, ilg‘or yangiliklarni joriy etish jarayoni. Modernizatsiya jarayonlari jamiyat tarixining barcha bosqichlarida ham amalga oshib kelgan. Modernizatsiya – taraqqiyotning sharti” [4. B. 5]. Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi ta’riflarda modernizatsiya hodisasiga tarixiy va praksiologik nuqtai nazardan yondashilgan.

Material va usullar

Davlatning iqtisodiy salohiyati asosida inson salohiyati turadi. Jamiyat salohiyati xususiyatlarining qanday bo‘lishi uning a’zolari salohiyatiga bog‘liq. Har bir insonning salohiyati yuksalsa, bevosita davlat va jamiyatning ham salohiyati yuksalishi shubhasiz. Shu bilan birga davlat inson salohiyatidan oqilona foydalanilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan davlat va jamiyatni modernizatsiya qilish masalasi mamlakat taraqqiyotidagi strategik maqsad sifatida qo‘yilgan.

Mamlakat rahbari tomonidan ijtimoiy hayotning barcha sohalarini tubdan rivojlantirish, modernizatsiya qilish va yangilash, bu jarayonlarda aholining turli ijtimoiy qatlamlari vakillarining faol ishtirokiga erishish vazifasi belgilab berildi. Davlatimiz rahbari turli viloyat aholisi vakillari, mutaxassislar bilan bo‘lgan uchrashuvlarda O‘zbekistonda sanoat, qishloq xo‘jaligi, texnologiyalar, ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarni zamonaviy asosda modernizatsiya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda [5. B. 488]. Demokratik islohotlarning yangi bosqichida jamiyat hayotining barcha sohalarini yangilash va innovatsion rivojlanish asosida muttasil o‘zgartirishni mamlakat barqaror taraqqiyotining muhim omili sifatida e’tirof etish mumkin. Shu o‘rinda faylasuf olimlarning beqarorlik, ijtimoiy borliqdagi o‘zgaruvchanlik hozirgi zamonning nisbatan turg‘un xususiyatiga aylanib qoldi [6. B. 3], degan fikrlari yangi bosqichdagi islohotlarning tub mohiyatini anglatishini qayd etish zarur.

Jamiyat taraqqiy etib borgani sari inson salohiyati ham ortib boradi. Bu ikki jarayon o‘rtasida dialektik aloqadorlik mavjud. Bunday o‘zaro dialektik ta’sir modernizatsiya kontekstida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki har qanday modernizatsiya yangilik asosida amalga oshadi. Yangilik esa insonning ongli faoliyati natijasida paydo bo‘ladi. Tarixdan ma’lumki, “Modernizatsiya – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida turli subyektlar, xalq, buyuk shaxslar tomonidan amalga oshirilgan va boshqarilgan islohotlar, ilg‘or yangiliklarni olib joriy etish jarayoni” [4. B. 38]. Ma’lumki, rivojlangan davlatlar allaqachon innovatsion taraqqiyot yo‘liga o‘tganlar, chunki innovatsiya – yangilik har qanday modernizatsiyaning asosidir.

Prezident Sh.Mirziyoyev yetakchiligida mamlakat islohotlar va modernizatsiya yo‘lidan bormoqda. O‘zbekistonning kelajagi innovatsion taraqqiyotsiz bo‘lishi mumkin emas. “Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz yetuk jamiyatimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aytgan innovatsion g‘oyalar, inno-

vatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” [7. B. 23].

Jamiyatning turli krizislarsiz barqaror taraqqiyoti, kishilar hayotining darajasi, farovonligi inson salohiyatini yanada rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarni olib keladi. Bu jarayonlar o‘zaro dialektik aloqadordir. Bu borada yuksak taraqqiyotga erishgan davlatlar o‘z hayotida modernizatsiya va innovatsiya jarayonlarini muntazam amalga oshirib kelmoqdalar. Taraqqiyotning har qanday bosqichi modernizatsiyaning amalga oshuvi bilan bog‘liq. Modernizatsiya amalga oshayotgan barcha sohalar xususiyatidan kelib chiqib, inson salohiyatining ma’lum shaklda namoyon bo‘lishiga asoslanadi. Insonning salohiyati uning faoliyati orqali jamiyatning o‘zgarishi, taraqqiy etishi va modernizatsiya jarayonlarining omili sifatida ishtirok etadi. Demak, inson salohiyatisiz modernizatsiya ham, islohotlar ham amalga oshmaydi. Chunki insonning har qanday ijtimoiy faoliyatida salohiyatining biror qirrasi aks etadi.

Modernizatsiya jarayonini amalga oshirishda inson salohiyati asosiy omil hisoblanadi. Har qanday taraqqiy etayotgan jamiyatda inson salohiyati zarur. Bu obyektiv jarayon madaniyma’naviy, iqtisodiyot, ilm-fan, siyosat, huquq, sohalarini to‘la qamrab olishi sababli jamiyat sohalarining o‘zaro integratsiyasi asosida bitta yo‘nalishda amalga oshirilgan o‘zgarishlar, albatta, boshqa sohaning ham o‘zgarishiga olib keladi.

Natijalar

Modernizatsiya jarayonida shunchaki faoliyat emas, insonning innovatsion faoliyati muhim rol o‘ynaydi. “Innovatsion faoliyat (inglizcha “innovation” – yangilik, joriy etish, ixtiro) – ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, boshqaruv, texnik, madaniy-ma’rifiy sohalarda yangi g‘oyalarni hayotga joriy etish, eng yangi texnika va texnologiyaning qo‘llanilishini anglatadi” [8. B. 40–44]. Innovatsion faoliyatning asosiy maqsadi turli xildagi yangiliklarni qo‘llashdan iborat. Ijtimoiy hayotga tobora innovatsiyani tatbiq etish natijasida shaxs innovatsion xususiyat kasb etib boradi. Bunday shaxs innovatsion rivojlanishga ega. Bu jarayonni to‘g‘ri yo‘naltirib borish hamda faoliyatning kengayishi innovatsion jamiyat shakllanishiga olib keladi.

Innovatsion xususiyatga ega bo‘lib borayotgan hamda innovatsiyaga qiziquvchi, o‘z faoliyatida tatbiq etuvchi va rivojlantiruvchi subyektlar jamiyatning ilg‘or va yangicha fikrlovchi avlodlarining taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Ularning salohiyatini yuzaga chiqarish uchun yangi sharoitlar yuzaga keladi. O‘z navbatida inson faoliyatining yangi elementlari va shakllari paydo bo‘ladi. Bunday sharoitda innovatsion shaxs shakllanib boradi. Bunday shaxs innovatsiyalarni o‘zlashtirib boradi va ularning tarqalishiga katta ta’sir etadi. “Innovatsion shaxs innovatsion salohiyatga ega bo‘lgan insondir. Innovatsion jamiyat shakllanishi jarayonida uning innovatsion salohiyati muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon innovatsiyalarni o‘zlashtirish, tadqiq etish va qabul qilish bilan bog‘liqdir” [9. B. 82].

Demak, modernizatsiyani amalga oshirayotgan jamiyat bir vaqtning o‘zida o‘z hayotida tobora innovatsiyaning tarqalishiga va ulardan innovatsion faoliyatga erishib borayotgan jamiyatdir. Modernizatsiya erkinlik va demokratiyaga asoslanadi. Globallashuvning ijobiy jihatlari inson taraqqiyoti, salohiyatining ortib borishiga katta ta’sir ko‘rsatadi va modernizatsiya sur’atlarini tezlashtiradi. Bu jarayon inson salohiyatini yuzaga chiqarishda yanada kengroq imkoniyatlar yaratadi.

Davlatimiz rahbari “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida yoshlar oldiga qo‘ygan vazifalarni hamda “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonda aks etgan vazifalarni amalga oshirishda yoshlarning shunchaki faoliyati emas, innovatsion faoliyati muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi.

Inson tobora kirib kelayotgan yangi qadriyatlarni o‘zlashtirib, “zamonaviylashib” boradi. Unda yangicha dunyoqarash, ijtimoiy hodisalarga faol munosabat, kreativ yondashuv shakllanadi. Bu jarayonlarning asosida innovatsion faoliyat yuzaga keladi. Insonning bunday zamonaviy xususiyatlari jamiyatda modernizatsiya jarayonlarining ham samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Salohiyat, faoliyat haqida so‘z borganda, bugungi kunning obyektiv ijtimoiy zaruriyatiga aylangan innovatsion faoliyat muammosiga alohida to‘xtalish zarur. “Har qanday inno-

vatsion faoliyat jarayoni yuqori samaradorlikka erishishga qaratilgan. Bu jarayonning qanday borishi va natijalari subyektlarning:

– innovatsiyalarni qidirib topishga intilishi va ularni o‘z faoliyatiga tatbiq qila olishi;

– jamoa faoliyatini innovatsion asosda qura olishi;

– innovatsion g‘oyalarni bera olishi;

– ilg‘or fikrlarni anglab yetishi va qabul qilishi;

– innovatsion ong va innovatsion tafakkurga ega bo‘lishi hamda unga asoslangan innovatsion faoliyat olib borishi bilan bevosita bog‘liqdir” [8. B. 40–44].

O‘zbekiston jamiyati taraqqiyotining bugungi bosqichida shunchaki faoliyatni amalga oshirish emas, aynan innovatsiyalar asosida shakllangan innovatsion ong, innovatsion tafakkur orqali namoyon bo‘ladigan, mazkur hodisalar tomonidan deterministik shartlangan faoliyat talab etiladi. Innovatsion faoliyat yo‘nalishlari to‘g‘risida turli falsafiy qarashlar va ilmiy yondashuvlar mavjud bo‘lib, faylasuf olim A.S.Begmatov innovatsion faoliyatni quyidagicha tavsiflaydi: “Innovatsion faoliyat” atamasi ishlab chiqarishda yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratish bo‘yicha xizmatlar bajarishni, yangi takomillashtirilgan texnologik jarayonni anglatadi. Innovatsion faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– yangi mahsulotni yaratish bo‘yicha faoliyat;

– yangi original g‘oyalarni tayyor mahsulot sifatida bozorga chiqarish;

– yangi original g‘oyalarni takomillashtirish va h.k. [10. B. 3].

Olim bu yerda shaxs faoliyatining shunday qirrasiga e’tibor qaratmoqdaki, unga ko‘ra shaxs mavjud ijtimoiy vaziyatga tanqidiy munosabatda bo‘lib, ilmiy tadqiqot faoliyati natijasini amaliyotga tatbiq etish tufayli ijtimoiy jarayonga yangilik kiritishning uddasidan chiqadi.

Innovatsiya – bugungi taraqqiyot talabi. Shaxsdan jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda o‘z faoliyatini kengaytirib hamda salohiyatini yuksaltirib borishni talab etadi. 2017-yilda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi” [11], deb ta’kidlab, innovatsion faoliyat masalasiga to‘xtalgan edi. Prezidentimiz o‘z fikrini davom ettirib quyidagilarni ta’kidlaydi: “Biz o‘z oldimizga O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiyalar orqali erisha olamiz. Buning uchun, avvalo, islohotlarning amaliy natijadorligini oshirish, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faol, yanada tashabbuskor bo‘lishiga erishmog‘imiz lozim” [12. B. 23].

Jamiyatda qaysi sohada bo‘lmasin faoliyat olib borish uchun va shunchaki faoliyat emas, jamiyatning tez sur’atlar bilan o‘sib borayotgan taraqqiyotiga mos keluvchi va uni ta’minlovchi subyektiv omil zarur. Bunday subyektiv omilga – jamiyat a’zolariga va aynan salohiyatlilarga qo‘yiladigan talab – yuksak salohiyatga ega bo‘lishdir. Chunki subyektiv omilning yuksak salohiyati uning samarali natijaga ega bo‘lgan faoliyatini ta’minlaydi. Bu nuqtayi nazardan jamiyat, millat, ayniqsa, yoshlardan ulkan mas’uliyat, shijoat, tinmay mehnat qilish, o‘z faoliyatiga kreativ yondashish hamda muntazam innovatsiyalarni tatbiq etish talab etiladi. Qayd etilgan holatlar subyektlar faoliyatning samaradorligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida jamiyat oldiga “...mahallalarning “o‘sish nuqtalari” va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi samaradorligi oshirilsin” [13] deyilgan. Ko‘rinib turibdiki, Strategiyada aholining ixtisoslashuvi, demak mavjud salohiyatidan kelib chiqib, ularning faoliyatini tashkil etish asosida “Mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish” [13] vazifasi qo‘yilgan.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining IV qismi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlanib, unda 27–50-maqsadlarda ta’lim tizimini tubdan

o‘zgartirish va unda yuqori salohiyatli yoshlarni tarbiyalash maqsadi va uni amalga oshirish mexanizmi aks etgan. 70-maqsad “yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”ga bag‘ishlangan. Unda yoshlarning ma’naviy, ijtimoiy, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish “iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish” [13] vazifasi qo‘yilgan. Shu bilan birga “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish, aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda “Kitobsevar millat” umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish, jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish [13] kabi inson salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan jarayonlar o‘ziga xos maqsadlar sifatida belgilab berilgan.

Muhokama

O‘zbekistonda hozirgi kunda amalga oshayotgan islohotlarning borishi, muvaffaqiyati va samaradorligi inson omili va uning salohiyatiga bog‘liq. “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” [11].

Bir qator olimlar ayrim jamiyatlarda modernizatsiyaga katta e’tibor qaratilib, o‘ta zamonaviylikka berilib ketish milliy etnostatus, milliy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashni xavf ostiga qo‘yishi mumkinligi to‘g‘risida ogohlantiradi. Innovatsiyalar milliy ongga nisbatan texnologiyalar taraqqiy etishi natijasida texnologik ongning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Albatta, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish texnologiyalarining taraqqiy etishi jamiyatning iqtisodiy farovonligiga hamda aholi turmush darajasining o‘sishiga olib keladi. Professor S.Atamuratov bu masalada quyidagi fikrlarni aytadi: “Texnogen ongning rivojlanishiga yaxshi tomonlama qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Birinchidan, u yangi texnika va texnologiyani yaratishga hamda bu bilan insonlarning moddiy farovonligini oshirishga yordam beradi. Bu insoniyatning moddiy ehtiyojlari tez o‘sib borayotgan bugungi kun uchun amaliy ahamiyatga egadir. Ish bilan barcha texnika va texnologiyani boshqarish imkoniyati inson qo‘li va insoniyat salohiyati darajasidan ilgarilab ketishi uning oxir-oqibatda o‘zini-o‘zi halokatga mahkum etishi mumkinligini ham hisobga olish o‘ta muhim” [15. B. 128].

Inson salohiyatini o‘rganishga intilish bu jamiyat va insoniyatning hayotiyligini o‘rganish bilan bog‘liq muammo hisoblanadi. Jamiyat qanday qilib o‘z hayotining davomiyligini va uzluksizligini, progressivligini ta’minlashi mumkinligini tahlil etish bo‘yicha turli-tuman iqtisodiy, siyosiy va boshqa nazariyalar yaratilgan. Bunday o‘rganish davomida ko‘p yondashuvlarning markazida insonning roli, subyektiv omillarning o‘rni e’tirof etilgan. Barcha nazariyalarning birlashtiruvchi xususiyati shundaki, ularda inson taraqqiyoti dialektik va dinamik jarayon sifatida qaralgan. “Inson taraqqiyoti” va inson salohiyati tushunchalarini solishtirsak, insonning har qanday taraqqiyoti uning salohiyati taraqqiyotini ham bildirishini anglaymiz.

Taraqqiyotning o‘ta jadallashib borayotgan hozirgi davrida inson salohiyati ijtimoiy makonda, tarixiy jarayonda mavjudlikning va taraqqiy etishning omili ekanligi aniq. O‘zbekistonning kelajagi haqida fikr yuritilganda, hozirgi kundagi islohotlarning natijasi va samaradorligi inson salohiyatining yuksalishi uchun xizmat qilayotganligi hamda dolzarb faoliyat turlarini kengayib borishi uchun qanday sharoitlar yaratilayotganligi muhimligini nazarda tutish zarur.

Dunyoning bir qator ilmiy markazlari va ilmiy tadqiqot institutlarida inson salohiyatini o‘rganishga katta ahamiyat berilayotganligi bugungi kunda inson salohiyati muammosining dolzarb bo‘lib borayotganligidan dalolat beradi. Chunki har qanday obyektiv taraqqiyotning subyektiv omili inson va uning salohiyati asosida faoliyat olib borishni to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq.

O‘zbekistonda inson salohiyatidan to‘g‘ri

foydalanish inson salohiyatining yuzaga chiqa olishi uchun imkoniyatlar, sharoit yaratish, mamlakatda to‘plangan mavjud salohiyatni to‘g‘ri taqsimlash va to‘g‘ri realizatsiya qilish hamda buning asosida tashkil etiladigan, amalga oshadigan faoliyatni maqsadli to‘g‘ri yo‘naltirish, salohiyatli kadrlarni obyektiv baholab joy-joyiga qo‘yish orqali yetarli darajada realizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jamiyatda demokratik islohotlar har bir shaxsning orzu-umidlari va oldiga qo‘ygan maqsadlarining amalga oshishi hamda tobora ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Bunday imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish uchun jamiyatning har bir a’zosi yuqori ma’naviy ong va zarur salohiyatga, ya’ni yetarli ko‘nikmaga, malakaga, ilg‘or dunyoqarashga, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi zarur. Sanab o‘tilgan elementlardan iborat salohiyat jamiyat taraqqiyotining subyektiv omili uchun ma’lum zamin hamda imkoniyat beruvchi omil hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy talablari shaxsdan yangicha yondashuv, kreativlik, bir so‘z bilan aytganda, shaxsdan ham yangilanishni talab etadi. Bu borada rahbarning roli katta bo‘lib, unga xos xususiyatlar va uning yetakchilik salohiyati boshqalarga ham ta’sir etishi, yetakchi sifatida ularni ma’lum faoliyatga yo‘naltirishi, to‘g‘ri oriyentatsiya berishi muhim hisoblanadi. “Bugun bizga mas’uliyatni dadil zimmasiga oladigan, bilimli, dunyoqarashi keng, madaniyatli, huquqiy ongi kuchli, qat’iyatli, bir so‘z bilan aytganda, zamonaviy rahbarlar kerak. Barcha jabhalarda shiddatli raqobat kechayotgan hozirgi davrda rahbarlar zimmasidagi mas’uliyat va ularga qo‘yilayotgan talablar kuchaymoqda. Turli bo‘g‘indagi rahbarlar nafaqat yetakchilik qobiliyati, odob-axloqi va muomala madaniyati bilan ham o‘rnak bo‘lishi lozim. Zero, muomala, odob-axloq madaniyatimizning muhim mezonlaridandir” [15. B. 8].

Bundan kelib chiqadiki, rahbar yetakchiligida butun guruh yoki jamoa a’zolari yangicha fikrlash, faol ongga hamda kreativ tafakkurga, yuksak axloqga ega bo‘lishi, bir so‘z bilan aytganda, yangilanishi talab etiladi. Ilg‘or tashabbuslarning jamoa tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. “Har qanday progressiv tashabbus ko‘pchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlangandagina u amaliyotga aylanadi. Bu sohada, ayniqsa, rahbarning o‘rni va tutgan yo‘li muhim bo‘lib, uning xatti-harakatlari va faoliyati u rahbarlik qilayotgan jamoa yoki yo‘nalishning ham faoliyatini belgilaydi. Rahbar dunyoqarashi, yuksak axloq, erkin va chuqur fikrlash, yangicha tafakkurga asoslanishi talab etiladi” [16. B. 187].

Mamlakatning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshlik xususiyati uning strategik maqsadlarini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni ta’minlashning muhim omili esa inson salohiyati asosiga qurilgan faoliyat hisoblanadi. O‘z evolyutsion taraqqiyotida modernizatsiya va innovatsiyani amalga oshirayotgan davlatlar, albatta, inson salohiyati, uni rivojlantirish hamda realizatsiya qilishning o‘ziga xos va samarali yo‘llarini qidirib topib, bu jarayonni obyektiv ehtiyojlarni qondirishga tomon yo‘naltirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Salohiyat va faoliyat o‘zaro bog‘liqligi masalasini nazariy to‘g‘ri hal etish, salohiyatni saqlash, yuzaga chiqarish, rivojlantirish, to‘g‘ri taqsimlash va uni kelajak avlodlarga yetkazib berish muammosining progressiv hal etilishi inson salohiyati va faoliyatini yanada rivojlantiradi.

Inson salohiyatini yuzaga chiqarish va rivojlantirish mavjud salohiyatni to‘g‘ri realizatsiya qila olishni talab etadi. Kompyuter, internet, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, masofaviy ta’lim, ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli foydalanish lozim. Bunday ulkan innovatsiyalarning ta’siri jamiyat va inson hayotining barcha sohalarida uchrashi tabiiy.

Inson faoliyatini tahlil etishda, albatta, unga dialektik aloqador bo‘lgan ehtiyoj, maqsad, manfaat, motiv, sharoit, imkoniyat kabi ijtimoiy-antropologik hodisalarni ham falsafiy jihatdan o‘rganish zarur.

Xulosa

Umuman olib qaraganda, faoliyatning xususiyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

– har qanday faoliyat ma’lum maqsadga yo‘nalgan;
– olamni inqilobiy o‘zgartirishi;
– yaratuvchanlik va borliqni o‘zlashtirish;
– ma’lum predmetliligi;
– deterministik xususiyati;

– tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlarga bog‘liqligi;

– vazifalarning bo‘linishi;

– davomiy va cheksizligi;

– dialektik xususiyati va boshqalar [17. B. 418].

O‘zbekistonda inson salohiyatini yuksaltirish, faoliyatini xalqaro mezonlarga mos ravishda kengaytirish mamlakatimiz taraqqiyotining muhim omillaridan ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bu borada O‘zbekistonning xalqaro maydonda o‘z mavqeyiga ega bo‘lishi, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa xalqaro munosabatlarning faol subyektiga aylanib, Markaziy Osiyodagina emas, jahon miqyosida tan olinishi ko‘p jihatdan yuqorida tahlil etilgan inson salohiyati muammosining ham to‘g‘ri hal etilishiga bog‘liqdir. Bu nuqtayi nazardan o‘zbek millatining boshqa xalqlar va mamlakatlarning tajribasini o‘zlashtira olishi progressiv taraqqiyotga xizmat qiladi. Bu borada milliy qadriyatlar va turmush tarzi bilan cheklanib qolishning o‘zi kamlik qiladi.

Milliy o‘zlikni anglash millat shakllanishining shartlaridan biri bo‘lib, u o‘zga millatlar va ularning tajribasi, madaniyatini inkor etish hisobiga emas, aksincha, ularga hurmat bilan qarash, o‘zini boshqa millatlar madaniyati va ma’naviyatiga taqqoslash, ularning ilg‘or tomonlaridan o‘rnak olish va o‘zlashtirish orqali o‘ziga xosligi va mentalitetini saqlab qolish demakdir. “Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o‘z qobig‘imizga o‘ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o‘z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko‘ramiz. Biz butun ma’rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz” [18. B. 114].

Inson faqatgina jamiyatda yashaganligi uchun ijtimoiy mohiyat kasb etadi. Agar jamiyatda yashamaganda insoniylik qiyofasiga ega bo‘lmas edi. Inson aynan ma’lum bir faoliyati orqali ijtimoiy mohiyat kasb etadi. Bu jarayon bevosita boshqa subyektlar bilan o‘zaro aloqaga kirishishni ta’minlaydi. Faoliyat jarayoni bevosita subyektning mehnat jarayoni sifatida tushuniladi. Insonning o‘zga insonlar yoki jamiyat bilan o‘zaro aloqalarni o‘rnatishi bevosita faoliyat orqali amalga oshadi.

Innovatsion faoliyat faoliyatning yuqori bosqichi bo‘lib, ehtiyojlarning ortib borishi natijasida vujudga kelgan. Innovatsion faoliyat turli yangiliklarni insonlar hayotiga olib kirishdan iborat.

Agar jamiyatda modernizatsiya jarayonlari qo‘llanilayotgan bo‘lsa demak, innovatsion taraqqiyot bosqichiga o‘tilgan hisoblanadi. Modernizatsiya jarayonlari inson salohiyatini yanada kengroq yuzaga chiqishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. *Назаров Қ.* Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. – Тошкент: Маънавият, 2019. – 920 б.

2. *Қирғизбоев М.* Элни суяганни эл ҳам суяйди. Сиёсатшунос олим М.Қирғизбоев билан суҳбат. // Тафаккур, 2017. – № 1. – Б. 10–11.-

3. *Қодиров А.* Анъанавий жамият ва уни модернизациялаштириш стратегияси. – Тошкент: ТДЮИ, 2006. – 216 б.

4. *Юлдашева Ф.* Модернизациянинг фалсафий жиҳатлари. // Илмий хабарнома – Научный вестник, 2014. – № 4. – Б. 37– 41.

5. *Мирзиёев Ш.М.* Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

6. *Абдуллаева Н.М., Гаффарова. Г.Г.* Философия и современность // Apriori. Серия: Гуманитарные науки, 2014. – № 2. – С. 1–8.

7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.

8. *Юлдашева Ф.Х., Эгамбердиев А.А.* Инновациялар: инновацион онг ва инновацион фаолият. // Илмий хабарнома – Научный вестник, 2017. – № 2. –Б. 40–44.

9. *Эгамбердиев А.* Ўзбекистонда модернизация шароитида ёшларда инновацион онг шаклланишининг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фалсафа фанлар доктори (PhD) диссертацияси. – Андижон, 2019. – 82 б.

10. *Бегматов А.С.* Инновацион онг: моҳияти, функциялари ва шаклланиш шартлари. – Тошкент, 2016. – 74 б.

11. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. [Интернет манба]. URL: https://president.uz/uz/lists/view/1371 (Мурожаат этилган сана: 13.03.2022)

12. *Мирзиёев Ш.* Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O`zbekiston, 2021. – 464 б.

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармони. [Интернет манба]. URL: https://lex.uz/uz/docs/5841063 (Мурожаат этилган сана: 14.03.2022)

14. *Атамуратов С.* Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. – Тошкент: O‘zbekiston, 2018. – 128 б.

15. Ўқиган ўқдан ўзар. Сиёсий фанлар доктори, профессор Алишер Файзуллаев билан суҳбат. // Тафаккур, 2018. – № 1. – Б. 4–13.

16. *Юлдашева Ф.* Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари. Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2019. – 187 б.

17. *Назаров Қ.Н.* Жаҳон фалсафаси қомуси. 2-китоб. – Тошкент: Маънавият, 2019. – 924 б.

18. *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.

POSSIBILITIES OF INCREASE OF HUMAN CAPACITY IN THE NEW UZBEKISTAN AND PROSPECTS OF ITS USE

Hurshid, N. Holmirzaev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 1(69). 5-14.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *modernization, innovation, innovative activity, potential, human potential.*

It is known that modernization processes are being carried out in all sectors of our country at the present time. It is difficult to find an area that has not been reformed. These processes rely on human potential and their effectiveness depends on human potential. At the heart of socio-economic reforms there are huge opportunities aimed at improving and putting to work the existing human potential in the society.

One of the determinants of the development of human potential is modernization. Recently, the concept of “modernization” is widely used in philosophical literature. Uzbek scientists are conducting a number of studies on the problem of modernization. Various concepts and definitions of modernization have been developed. The concept of “modernization” is used in the theoretical research of society, in the study of the process of gradual improvement of society from simple to complex.

The economic potential of the state is based on the human potential. The characteristics of the capacity of society depend on the capacity of its members. The growth of the potential of society and the state is determined by the growth of the potential of each of its members. At the same time, in turn, human potential can be directed by the society and the state, it can be created and properly realized.

Shavkat Mirziyoyev, President of the Republic of Uzbekistan, set the issue of modernization of the state and society as a strategic goal in the country’s development.

In the process of modernization, not just activity, but the innovative activity of a person plays an important role. “Innovative activity (English “innovation” – innovation, introduction, invention) means the implementation of new ideas in socio-economic, organizational, management, technical, cultural and educational spheres, the

use of the latest techniques and technology." The main purpose of innovative activity is to use different types of innovations. As a result of increasingly applying innovation to social life, a person acquires an innovative character. Such a person has innovative development.

A person acquires a social essence only because he lives in society. He would not have the appearance of humanity if he did not live in society. A person acquires a social essence precisely through a specific activity. This process provides direct interaction with other subjects.

The activity process is directly understood as the cocktail process of the subject. A person's interaction with other people or society is realized through direct activity.

Innovative activity is a higher stage of activity, which arose as a result of increasing needs. Innovative activity consists in bringing various innovations into people's lives.

If modernization processes are being used in the society, it means that it has passed the stage of innovative development. Modernization processes ensure that human potential is revealed to a wider extent.

References:

1. *Nazarov, Q.* (2019). *Jahon falsafasi qomusi* [Encyclopedia of World Philosophy. A-H]. Book 1. Tashkent: Ma'naviyat.

2. *Kyrgyzboev, M.* (2017). Elni suyaganni el ham suyaydi [He who leans on the hand will be supported by the hand]. Interview with political scientist M.Kyrgyzboev. *Tafakkur.* No 1. Pp.10-11.

3. *Kadirov, A.* (2006). *An'anaviy jamiyat va uni modernizatsiyalashtirish strategiyasi* [Traditional society and its modernization strategy]. Tashkent: TDYUI.

4. *Yuldasheva, F.* (2014). Modernizatsiyaning falsafiy jihatlari [Philosophical aspects of modernization]. *Ilmiy xabarnoma – Nauchnyj vestnik*. No 4. Pp. 37-41.

5. *Mirziyoyev,* Sh.M. (2017) *Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz* [We will build our great future together with our brave and noble people]. Tashkent: O'zbekistan.

6. *Abdullaeva, N.M.,* Gaffarova, G.G. (2014) Filosofiya i sovremennost [Philosophy and Modernity]. *Apriori. Seriya: Gumanitarnye nauki.* No 2. Pp.1-8.

7. (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi [Address by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to Oliy Majlis]. *Xalq so'zi*. December 23.

8. *Yuldasheva, F.Kh., Egamberdiev, A.A.* (2017) *I*nnovatsiyalar: innovatsion ong va innovatsion faoliyat [Innovation: innovative consciousness and innovative activity]. *Ilmiy xabarnoma – Nauchnyj vestnik*. No 2. Pp. 40-44.

9. *Egamberdiev, A.* (2019) *O'zbekistonda modernizatsiya sharoitida yoshlarda innovatsion ong shakllanishining ijtimoiy-falsafiy muammolari* [Socio-philosophical problems of the formation of innovative consciousness among young people in the conditions of modernization in Uzbekistan]. The dissertation for doctor of philosophy (PhD) sciences. Andijan.

10. *Begmatov, A.S.* (2016) *Innovatsion ong: mohiyati, funksiyalari va shakllanish shartlari* [Innovative consciousness: essence, functions and conditions of formation]. Tashkent.

11. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi* [Address by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to Oliy Majlis]. [Online]. URL: https://president.uz/uz/lists/view/1371 (Date of Access: 13.03.2022)

12. *Mirziyoyev, Sh.* (2021) *Yangi O'zbekiston strategiyasi* [New Uzbekistan strategy]. Tashkent: O'zbekistan.

13. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni* [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan 'On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026']. [Online]. URL: https://lex.uz/uz/docs/5841063 (Date of Access: 14.03.2022)

14. *Atamuratov, S.* (2018) *Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati*. [Globalization: The Responsibility to Protect the Nation]. Tashkent: O'zbekistan.

15 *Fayzullayev, A.* (2018) O‘qigan o‘qdan o‘zar [It is different from the bullet you read]. Interview with Doctor of Political Sciences, Professor Alisher Fayzullayev. *Tafakkur*. No 1. Pp. 4-13.

16. *Yuldasheva, F.* (2019) *O‘zbekistonda globallashuv sharoitida ma’naviy yangilanishning o‘ziga xos xususiyatlari* [Peculiarities of spiritual renewal in the conditions of globalization in Uzbekistan]. The dissertation for Doctor of Philosophy Sciences (DSc). Tashkent.

17. *Nazarov, Q.* (2019) *Jahon falsafasi qomusi.* II. O-H [Encyclopedia of World Philosophy. II. O-H]. Book 2. Tashkent: Ma’naviyat.

18. *Karimov, I.A.* (2008) *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch* [High spirituality is an indomitable power]. Tashkent: Ma’naviyat.

Муаллиф ҳақида маълумот:

ХОЛМИРЗАЕВ Хуршид Нақибиллаевич – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Андижон давлат университети Фалсафа кафедраси катта ўқитувчиси. E-mail: sokin3548@umail.uz